

# МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРҮҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / I 2021 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Өсербай ӨЛЕҰОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

**Шөлкемлестириўшилер:**

Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендириў  
Министрлиги, ӨЗПИИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қарары менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм  
хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-санлы гуўалық  
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: [uzniipnkkf@umail.uz](mailto:uzniipnkkf@umail.uz),  
[mugallim-pednauk@umail.uz](mailto:mugallim-pednauk@umail.uz)  
[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)

*Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.*

# MAZМУНЫ

## БАСЛАЎҶИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

<b>Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A.</b> Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi .....	4
<b>Mahmudova D.B.</b> Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi .....	8
<b>Shanasirova Z.Yu.</b> Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish .....	13
<b>Abdullayeva M.Dj.</b> Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar .....	17
<b>Narimbayeva L.K.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanishning ahamiyati .....	20
<b>Nosirova R.X.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati ..	22
<b>Xolmatova S.K.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati .....	26
<b>Maripova N.H.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya .....	28
<b>Sanakulova A.R.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish .....	31
<b>Teshabayeva Z.S.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi .....	34
<b>Nasirova Z.X.</b> O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	38
<b>Shanasirova Z.Yu.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati .....	43
<b>Jo'raboyev A.B.</b> Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti .....	48
<b>Abdullayev A.A.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari .....	51
<b>Achilova M.S.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni .....	55
<b>Ochilov F.I., Xusanova N.B.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari .....	58
<b>Narimbetova Z.A., Asgarova N.J.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati .....	62
<b>G'ulomova X.</b> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi .....	67
<b>Умарова З.А.</b> Бошланғич таълимда педагогик жараён .....	70
<b>Жабборова О.М., Сайидганиева З.С.</b> Бошланғич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият .....	74
<b>Quzmanova G.B., Ergasheva M.E.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish .....	78
<b>Мамадалиев К.Р.</b> Бошланғич таълим йўналиши ўқув фанлари тузилмаси ва зamonaviy ўқув адабиётларини яратиш принциплари .....	80
<b>Тожибоева Г.Р., Крымская Э.</b> Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов .....	86

## ТИЛ ҲАМ ҲДЕБИЯТ

<b>Матчинов С., Холикулова Ф.</b> Ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини шакллантиришда матннинг лингводидактик таҳлили .....	91
<b>Шерматова У.С., Жабборова О. М.</b> Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни .....	95

studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Menedjment organizatsii» / A. L. Novoselov, I. Yu. Novoselova. – M.: YUNITI-DANA, 2012. – 383 s.

4. Bganba V.R. Sotsialnaya ekologiya / V.R. Bganba. – M.: Vissh. shk., 2004. – 309 s.

5. Fizicheskaya kultura studenta: Uchebnik / Pod red. V.I. Ilinicha. – M.: Gardariki, 1999. – 448 s.

6. Fizicheskaya kultura: Uchebnoye posobiye / Pod red. V.A. Kovalenko. – Izd-vo ASV, 2000. – 432 s.

7. Seledes, V.P. Sotsialnaya ekologiya. Ch. 2: uchebnoye posobiye / V.P. Seledes, S.I. Kojenkova. – Vladivostok: VGUES, 2006. – 140 s.

#### РЕЗЮМЕ

Bolalarni hayotdagi go‘zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo‘lgan go‘zalliklarni ko‘ra bilishga o‘rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go‘zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan fikrlarni yechimini topishqa qaratilgan.

#### РЕЗЮМЕ

Научить детей понимать и любить красоту жизни, видеть красоту в природе, в жизни, в творчестве, в общественной жизни, в поведении людей. Важно, как можно больше развивать желание активно участвовать в создании красоты в жизни. Эта статья посвящена поиску решения вышеперечисленных вопросов.

#### SUMMARY

To teach children to understand and love the beauty of life, to see the beauty in nature, in life, in creative work, in social life, in the behavior of people that children can understand. They have an aesthetic sense, an aesthetic taste, an aesthetic attitude. It is important to cultivate the desire to take an active part in creating beauty in life as much as possible. This article focuses on finding a solution to the above points.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI FIKRLARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

*Xolmatova S.K.*

*TVChDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** iqtisod, tarbiya, ta‘lim, bolalar, vatanparvar, tabiat, maktabgacha ta‘lim muassasa, mutafakkirlar.

**Ключевые слова:** экономика, воспитание, образование, дети, патриотизм, природа, дошкольное учреждение, мыслители.

**Key words:** economics, upbringing, education, children, patriotism, nature, preschool, thinkers.

Kattalarga hurmat ila munosabatda bo‘lish tarixga bo‘lgan hurmat, ehtiromning bir qirrasidir. Unut bo‘lgan tariximizni tiklash, payhon bo‘lgan zaminimizni poklash, kelajak avlodga ajdodlarimizdan qolgan merosimizni esomon yetkazish - har bir insonning, vatanparvar, xalqparvar, tarixparvar insonlarning ham qarzi, ham farzidir.

Vatan tuyg‘usi kichkina odam ko‘z o‘ngida ko‘rayotgan narsadan qoyil qolishidan, uni hayratlantiradigan va qalbida aks-sado beradigan narsalardan boshlanadi.

Kattalarning vazifasi - bola oladigan ko‘plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo‘lganlarini: eng yaqin kishilari, jonajon o‘lka tabiati va hayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, vatanning gullab-yashnashi yo‘lidagi mehnati, o‘r-toqlik, o‘zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Xo‘sh, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tushunchasiga nima ko‘proq mos keladi va nima uni qiziqtirishi va hayajonlantirishi mumkin?

Dastavval, bu u tug'ilgan va yashayotgan joylardir. Jonajon ona tabiat vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go'zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga ehtiyoqkorona munosabatda bo'lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o'zgartiruvchilik rolini tushunishigacha

- bularning hammasi jonajon o'lkaga muhabbatni shakllantirishning manbalaridir. Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi, chunki uning obrazlarida vatan o'z ifodasini topgan bo'ladi. Odam vatanga bo'lgan muhabbatini o'zi tug'ilgan va o'sgan oilasi, bolalar bog'chasi va maktabi, bolalar bilan o'ynagan o'yinlari va joylari bilan bog'laydi.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketadi. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofga mehr-muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi voqea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, Navro'z bayramini hamma kishilar shodiyonalik, bilan kutib olishlarini ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning saboblari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Masalan:

Mehnat kilsang, ko'ksing tog',

Hurmat qilsang, diling bog'. Mehnatli non - shakar, Mehnatsiz non - zahar.

Mehnat baxt keltirar. Mehnat qilib topganing, Qandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug'laydi uning samarasi haqida fikr yuritadi. O'zbek bolalar yozuvchi va shoirlari ham kattalar mehnatning mazmunini yoritib berganlar.

Yuqorida aytganlarimizdan ko'rinib turibdiki, mehnat har qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbal shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishnin; muhim vositasidir. Mehnat jarayonida insoniy hislatlarnin faol namoyon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma'naviy qoniqish hosil qiladi.

Har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatga ishtirok etishi zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq o'king kundalik vazifasiga aylanishi kerak.

Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishl uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatyash yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi.

Bolalar quruvchilarning mehnatini kuzatishyapti, deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular ko'tarma kran bilan tushiriladi. Keyin bolalar g'isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, bo'yoqchilar mehnatini kuzatadilar.

Bolalarning qurilish bilan tanishish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko'zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mehnatining go'zalligi namoyon bo'ladi.

Mana, tarbiyachi bolalar diqqatini chinni buyumlarga gul sotuvchi kishilar mehnatiga jalb etadi.

Tarbiyachi bolalarga jonajon shahar, qishloqdagi eng chi-royli ko'chalarni, maydonlarni, binolarni, bog'larni ko'rsatadi. Ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarning nomi shahar yoki

qishloqning tarjimai holini, xalqning o‘tmishini anglati-shini tushuntiradi. Bu nomlar buyuk olimlar, sarkardalar, yozuvchilar, xalq e‘zozlagan boshqa kishilar sharafiga qo‘yilganini tushuntiradi.

Pedagog kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o‘lka tabiatiga muhabbat uyg‘otishi, uning go‘zalligini his etish qobiliyatini tarbiyalashi, uning boyliklarini saqlash va ko‘paytirish istagini uyg‘otib borishi lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog‘larga, polizga, issiqxonalariga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr-ekskursiyalar uyushtiradi.

U o‘zbek va boshqa millat yozuvchi-shoirlarining tabiat haqidagi she‘r va qo‘shiqlaridan, buyuk rassomlarning rasmlaridan foydalanadi. Tarbiyachi bolalarni jumhuriyatimizning boshqa nohiya va qishloqlari, shaharlari, undagi ijtimoiy hayot bilan tanishtiradi. Bolalar kitob, hikoya, kinofilmlardan bepoyon vatanimiz xalqlari, ularning hayoti va mehnati, o‘lkamiz boyliklari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Tarbiyachi «Vatan», «Bizning shahar», «O‘zbekistonning poytaxti- Toshkent», «Qishlog‘imizning eng yaxshi kishilari», «Shahrimizning eng yaxshi kishilari» va shunga o‘xshash mavzular bo‘yicha kitob va rasmlar tanlaydi, turli albomlar, papkalar tayyorlab, bolalar bilan olib boradigan ta‘lim-tarbiyaviy ishida foydalanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Danilov M.A. K voprosu o metodax obucheniya v sovetskoy shkole. – Sovetskaya pedagogika, 2005, №10.
2. Raykov B.Ye. Obshaya metodika yestestvoznaniya. – M., 2011.
3. Kupisevich Ch. Osnovi obshey didaktiki. M., 2012.
4. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume 02 Issue12-17>

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta‘lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье подчеркивается важность использования идей восточных мыслителей в экономическом образовании в дошкольных учреждениях.

#### SUMMARY

The article highlights the importance of using the ideas of oriental thinkers in economic education in preschools.

## MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA

*Maripova N.H.*

*TVChDPI Maktabgacha ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** tarbiya, ta‘lim, mehnat, iqtisod, estetika, bolalar, maktabgacha ta‘lim muassasi, vatanparvarlik.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, труд, экономика, эстетика, дети, дошкольное учреждение, патриотизм.

**Key words:** upbringing, education, labor, economics, aesthetics, children, preschool, patriotism.

Inson o‘z kamoloti davomida turli yo‘nalishda tarbiyalanadi. Ular ma‘naviy, ma‘rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo‘lajak